

## MDH DAVLATLARINING DEMOGRAFIK VAZIYATI

O'taniyozova Muxlisa Baxtiyorovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti 2-kurs talabasi

Telifon:+998(99)4190503

E-mail:otaniyozovzohidjon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8254150>

**Anotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada MDH davlatlarining birlashish jarayoni, ularning aholisi soni va aholi orasida yuzaga kelgan demografik, urbanistik jarayonlar haqida ma'lumot berilgan. MDH davlatlarining aholisi sonlaridagi tafovut, tabiiy ko'payish yoki kamayishga sabab bo'lgan omillar va jarayonlar, MDH davlatlarining tabiiy geografik qulayligi hamda ushbu qulaylik MDH davlatlarining demografiyasiga ta'siri bayon etilgan. Shu bilan birga MDH davlatlarining demografik vaziyati shu tarzda ketayotgan bo'lsa ularda keying demografik jarayonlar qanday kechishi haqida prognozlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** MDH, demografiya, migratsiya, prognoz, urbanistik tahlil, kamayish tendensiyasi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi- 1991-yil 8-dekabrda asos solingan bo'lib o'z faoliyatini o'sha yilning 21-dekabrda rasman ish boshlagan. Maydoni 20,368,759 kv km. Aholisi 240 mln kishini tashkil etadi. Hamdo'stlik nizomiga ko'ra a'zo davlatlar inson huquqlari va erkinligini ta'minlash, davlatlar tashqi siyosatini nazorat qilish, iqtisodiy hamkorlik, transport va aloqa tizimini rivojlantirish, aholi salomatligini muhofaza qilish, tabiatni muhofaza qilish, ijtimoiy va migratsion siyosat masalalarini hal etish; uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalarini hamkorlikda hal qilishlari zarur. Hozirgi kunda Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Moldova, Ozarbayjon, Armaniston Respublikalari tashkilot a'zolari bo'lib hisoblanadilar. Turkmaniston esa assotsiyalashgan davlat maqomiga ega. Shu bilan birga Mongoliya, Afg'oniston tashkilot kuzatuvchilari sifatida turli yig'ilishlarda ishtirok etadi. 1993-yilda bu tashkilotga Gruziya ham qo'shiladi.

MDH mamlakatlari aholisini yillar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, ba'zilarida tez sur'atlarda o'sish, ba'zilarida esa qisqarishini ko'rish mumkin. Aholi sonini demografik prognozi- aholi harakati parametrlariga asoslangan holda aholining kelajakdagi holatini ilmiy asoslarini ishlab chiqish demakdir. MDH mamlakatlari aholi sonining demografik prognozi to'g'risida turlicha tahlillar mavjud bo'lib, haligacha MDH aholisi soni aniq qancha ekanligi rasmiy ravishda e'lon qilinmagan. Bunga sabab mintaqaning o'n bir davlatidan yettitasida aholi soni ro'yxatdan o'tkazilgan. Qolgan to'rttasi to'g'risida esa eski ma'lumotlarga murojaat qilish mumkin, MDH mamlakatlaridan 5 ta davlatda: Tojikistonda o'rtacha yillik 0,5%, Turkmaniston va O'zbekistonda 0,2%, Qozog'iston va Qirg'izistonda 0,1% o'sish saqlanib qolishiga qaramasdan, o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda. Boshqa mamlakatlarda aholi o'lim darajasi kutilmoqda, Belorussiyada yillik ko'rsatkich -0,9% ni tashkil etadi. MDH davlatlari orasida aholi soni jihatidan birinchi o'rinda Rossiya turadi, aholisi 116 mlnni tashkil etadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra ikkinchi o'rinni Ukraina egallaydi, 36,3 mln kishini tashkil etadi. Uchinchi o'rinda esa O'zbekiston egallaydi 36 mln aholi bilan. Ammo Ukrainada hozirgi kunda tabiiy kamayish jarayo -0,3 %ni tashkil etmoqda. Shunday holat yana kuzatilsa

O'zbekiston aholisi Ukraina aholisi sonidan ortib ketishi mumkin. Bugungi kunda MDH mamlakatlari oldida turgan muhim vazifa bu aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning mehnatga bo'lgan layoqatini oshirish orqali mavjud demografik muammolarning oldini olish chora-tadbirlarini birgalikda ishlab chiqishdir. Chunki mintaqaning biror bir davlatida kuchli demografik muamo yuzaga kelsa, bu o'z navbatida, mintaqaning barcha davlatlariga ta'sir ko'rsatadi. MDH mamlakatlarining demografik rivojlanishi prognozi tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, mintaqada aholi soni so'ngi yillarda kamayish tendensiyasiga egadir. . Birgina 1992-yildan keyingi davr oralig'ida mintaqa aholisi sonining sezilarli darajada kamaygani, hamda aholining tabiiy harakatida, asosan, o'lim ko'rsatkichining yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Bu esa kelajakda ishlab chiqarishning muhim omillaridan biri hisoblangan ishchi kuchi tanqisligiga olib keladi. Natijada mamlakatlar bu ehtiyojni mintaqadan tashqarida tashqi migratsiya hisobiga qondiradilar. O'z-o'zidan turli millat vakillari o'rtasida siyosiy nizolar ham kelib chiqadi. MDH mamlakatlariga demografik tahdidlarning oldini olishga yordam beradi. Masalan, kelajakda aholining urbanistik harakati ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, O'zbekiston aholisini olib qaraydigan bo'lsak, mustaqillik yillarigacha aholining qariyb 60% qishloqlarda istiqomat qilsa, shahar aholisi 40% ni tashkil etaredi. Endilikda teskari tendensiyan kuzatish mumkin. 2050-yilga mo'ljallangan MDH mamlakatlari aholi prognozlaridan yana shu narsa aniqki, kelgusida mintaqada aholi soni bo'yicha liderlik qilayotgan mamlakatlar kelgusida o'z o'rnini boshqa bir davlatga bo'shatib berishi mumkin.

### References:

1. Bo'riyeva M.R., Tojiev Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. -T.: "Tafakkur",2011.
2. Bo'riyeva M.R. Demografiya asoslari.-T.:2001.
3. Abdurahmonov Q.X., Abdurahmon X.X. Demografiya.-T.: "Noshir",2011.